TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT –KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GI O‘ZIGA XOSLIGI

Egamberdiyev I.Y.

Toshkent davlat pedagogika universiteti Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnolgiyalari, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan e’tibor, kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sababi shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda ta’lim oluvchilarining faqat tayyor bilimlarni egalashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari izlab topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qlishlariga o‘rgatadi.

Jamiyatimizning hozirgi kundagi taraqqiyotini axborot – kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kompyuterlashtirish, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omili sifatida ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shuning uchun Respublikamiz hukumati bu sohani rivojlantirishga, takomillashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. “Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz o‘zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot - kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha tub va ijobiy ma’nodagi portlash effektini beradigan o‘zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan ushbu sohaga doir qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar respublikamizning axborot – kommunikatsiya tizimlarining yuksak rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi yo‘lida olib borilgan sa’y-harakatlardan dalolat beradi. Respublikamizda so‘nggi yillarda chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar talablariga mos, raqobatbardosh oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonunida “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish maqsadida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish” zarurligi belgilangan. Natijada, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim olish jarayonini takomillashtirishda axborot-texnologik vositalar asosida talabalarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogika ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktyabrdagi VM-809-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-fevraldagi VM-140-sonli “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi to‘g‘risida” hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi, avvalo, mazkur sohani rivojlantirishni huquqiy asoslari hisoblansa, qolaversa, ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, zamon talabiga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash talabini ham qo‘yadi.

Ma’lumki, bugungi kunimiz axborotlar asridir. Shu munosabat bilan jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan ta’lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamisha dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallamoqda. Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg‘u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniye)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi: O‘quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish. Pedagoglarning o‘z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish. Axborotli ta’lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash va uni takomillashtirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biri hamdir. Shu bois o‘quv maskanlarida elektron darsliklar, elektron ma’ruza fondlari, elektron lug‘at, elektron ensiklopediya kabi o‘quv manbalari yaratilishi va ushbu elektron manbalardan talabalarni unumli foydalanishlari, ularning o‘qituvchilar bergan bilimlar bilan chegaralanmay, balki mustaqil bilim olish, darslarda olingan bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quv dargohlarida darslarni multimediya vositalaridan foydalanib va o‘quv xonalaridagi lokal tarmoq orqali tashkil etilishi, talabalarning mavzuni yaxshi tushunishi, darslarni qiziqarli o‘tkazilishiga olib keladi. Toshkent 1-sonli akademik litseyda Informatika va axborot texnologiyalari fani kafedradagi lokal tarmoqda Netop School dasturidan foydalanib olib borilmoqda va bu o‘z ijobiy natijalarini bermoqda.

Umuman olganda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, fanlarga doir yaratilgan elektron o‘quv ishlanmalarni talabalarning shaxsiy kompyuterlarida bo‘lishi, ularning mustaqil ravishda kompyuter savodxonligini, shuningdek, elektron manbalardan foydalanib, bilim va tajribalarini oshirishga ko‘maklashadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdan shuni xulosa qilamizki, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta’limda yuqori samaradorlikka erishishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonini texnik vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Barcha ta’lim muassasalarida, xususan oliy ta’limda axborot– kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali dars o‘tish talabalarga berilayotgan axborotni tez va oson yetib borishini, ularni tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishining asosi bo‘ladi. Bundan tashqari ta’lim tizimida telekonferensiyalarni tashkil qilinganligi ta’lim jarayonining yutuqlaridan biridir. Bu orqali talabalar fikr almashishlari, erkin fikrlash va o‘z fikrini to‘g‘ri va aniq etkazish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Internet tizimlari orqali jahonning boshqa mamlakatlarida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, tadbirlar, ta’lim jarayonining yangiliklari va yutuqlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Demak, axborot texnologiyalari – talabalarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan, ma’lumotlarni tashkil etish, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnika vositalari bo‘lib xizmat qilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni.

2. 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmonlari,

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi,

4. 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogika ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari

5. VM-140-sonli “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi to’g’risida” gi 2018-yil 23-fevraldagi.